



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 328 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Khusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmuratovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуюловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуюловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarining samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	
Tijorat banklari likvidligini tartibga solish yo'llari.....	160
Tursunpo'latov Sohbnazar Kasimjon o'g'li, Nomozova Mohinur Maxmud qizi	
Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirishda yashil moliya vositalarining roli: xalqaro tajriba va O'zbekiston imkoniyatlari	163
Yuldasheva Madina Tohir Qizi	
Geofazoviy ma'lumotlar asosida hududlarning farovonlik darajasini aniqlash	173
Toymasov Zufarjon Zokir o'g'li	
Методы и критерии оценки эффективности конкурентоспособности предприятия	179
Кучаров Абдор Сабижанович, Бобожонов Азиз Бабаханович, Алижанова Камила Тохир кизи	
Korxonalarda innovatsion jarayonlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	187
Narbeyeve Dilnoza Darvishaliyevna	
Development of entrepreneurship in Uzbekistan: management strategies in the context of economic reforms	192
Ibragimova Saida Ilkhomovna	
Aloqa korxonalari xizmat faoliyatida diversifikatsiya qilishning ilmiy baholash usullari va ulardan foydalanish.....	197
Tursunova Mastura Taxirovna	
Developing effective marketing strategies for tourism development in Uzbekistan	204
Fayzullayev Nodirbek Baxtiyor o'g'li	
Yakka tartibdagi tadbirkorlarni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari.....	208
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzayevich	
Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarida investitsiya loyihalarini bank kreditlari orqali moliyalashtirish.....	212
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
Цифровизации системы стратегического управления предприятий нефтегазовой отрасли Республики Узбекистан.....	217
Азимов Кабул	
Индекс устойчивости региона против бедности (poverty resilience index – pri): на примере бухарской области Республики Узбекистан (2024)	223
Мухамедова Мадинабону Мехридиновна	
Экономические аспекты внедрения цифровых технологий в полиграфии.....	230
Юсупхужаева Шахноза Музаффар кизи	
Mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni shakllantirish va barqaror rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	233
Sattorov R. A.	
Web3'da real vaqt ma'lumot sinxronizatsiyasi — tarmoqdagi kechikishlar va ularni kamaytirish texnologiyalari.....	240
Raimov Ulugbek Yorqinbek o'g'li	
Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish amaliyotining dolzarb masalalari	246
Sayfutdinov Bobur Nodirovich	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	255
Yuldoshev Otabek Jovli o'g'li	



Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish yo'llari.....	261
Ortiqov Sidiqjon Xolmurodovich	
Innovatsion yondashuvlar orqali davlat xaridlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish	266
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
Hududlarda barqaror rivojlanish nazariyalarining sanoat korxonalari faoliyatiga ta'siri	270
Sadriddinov Baxtiyor Shamshiddin o'g'li	
Turizm platformalarining raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy kontent va raqamli marketing strategiyalarining integratsiyalashgan yondashuvi.....	277
Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'g'li	
Bank xizmatlarida innovatsion texnologiyalarni kengaytirish yo'nalishlari.....	283
Almosova Shohista Jobirovna	
Модели организации казначейства в ведущих стран мира.....	288
Сагдиев Равшан Сайфуллаевич	
Parrandachilik mahsulotlari omilli tahlil qilishda indeks usulidan foydalanish.....	293
Bobomuratov Imomkul Islamovich	
Paxta-to'qimachilik klasterlari faoliyatini nazariy jihatlar va rivojlantirish yo'llari.....	302
B.Sh.Shadmanov	
Qurilish sanoatini rivojlantirishda tabiiy resurslardan kompleks foydalanishning ahamiyati.....	307
Yuldasheva Mexrunisa Kasimjan qizi	
Yangi O'zbekistonning "Yashil" iqtisodiyoti: qiyosiy tahlilning asosiy tendentsiyalari	313
Ro'ziyeva Dilfuza Toshtemirovna	
Oliy ta'limda raqamli texnologiyalarning muammolari va uni bartaraf etish yo'nalishlari.....	318
Abduraxmanova Malika Abdujaparovna	
Namangan viloyatining Farg'ona vodiysi qo'shni hududlari bilan iqtisodiy hamkorligining hozirgi holati va rivojlantiruvchi omillari	323
Sattarov R.A.	



NAMANGAN VILOYATINING FARG'ONA VODIYSI QO'SHNI HUDUDLARI BILAN IQTISODIY HAMKORLIGINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRUVCHI OMILLARI

Sattarov R.A.

tadqiqotchi

Makroiqtisodiy va hududiy

tadqiqotlar instituti

E-mail: academics.uzb@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namangan viloyatining Farg'ona vodiysidagi Andijon va Farg'ona viloyatlari bilan iqtisodiy hamkorligining hozirgi holati va uni rivojlantiruvchi asosiy omillar tahlil qilingan. Tarixiy–madaniy umumiylik, aholi zichligi va iqtisodiy tuzilmaning bir-birini to'ldiruvchi xususiyatlari mazkur hududdagi hamkorlikni barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylantiradi. Tadqiqot jarayonida mavjud kooperatsiya shakllari hamda samarali sheriklikka to'siq bo'layotgan institutsional va infratuzilmaviy muammolar aniqlangan. Xususan, transport va logistika infratuzilmasi, sanoat integratsiyasi, qo'shma investitsiya loyihalari hamda iqtisodiyotni raqamlashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Mintaqalararo aloqalarni kuchaytirishda strategik rejalashtirish va klaster asosidagi yondashuv zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Namangan viloyati, Farg'ona vodiysi, viloyatlararo hamkorlik, iqtisodiy integratsiya, hududiy rivojlanish, infratuzilma, kooperatsiya.

Abstract: This article analyzes the current state and key drivers of economic cooperation between Namangan Region and the Andijan and Fergana Regions of the Fergana Valley. The shared historical–cultural heritage, high population density, and complementary economic structures make cooperation in this area an important factor in sustainable economic development. The study identifies existing forms of cooperation as well as institutional and infrastructural barriers hindering effective partnerships. Particular attention is given to transport and logistics infrastructure, industrial integration, joint investment projects, and the digitalization of the economy. The need for strategic planning and a cluster-based approach to strengthen interregional relations is scientifically substantiated.

Key words: Namangan Region, Fergana Valley, interregional cooperation, economic integration, regional development, infrastructure, cooperation.

Аннотация: В данной статье проведён анализ современного состояния и ключевых факторов развития экономического сотрудничества Наманганской области с Андижанской и Ферганской областями Ферганской долины. Общность историко–культурного наследия, высокая плотность населения и взаимодополняемая структура экономики превращают сотрудничество в данном регионе в важный фактор устойчивого экономического развития. В ходе исследования определены существующие формы кооперации, а также институциональные и инфраструктурные проблемы, препятствующие эффективному партнёрству. Особое внимание уделено вопросам транспортной и логистической инфраструктуры, промышленной интеграции, совместных инвестиционных проектов, а также цифровизации экономики. Научно обоснована необходимость стратегического планирования и кластерного подхода для усиления межрегиональных связей.

Ключевые слова: Наманганская область, Ферганская долина, межрегиональное сотрудничество, экономическая интеграция, региональное развитие, инфраструктура, кооперация.

KIRISH

Farg'ona vodiysi O'zbekistonning takrorlanmas tabiat majmuasi bo'lib, xo'jalik va aholi aloqalarining uzviyligi hamda hududlarning iqtisodiy birlikni shakllantirish imkoniyati yuqoriligi bilan ajralib turadi. Viloyatlararo iqtisodiy birlik tarixi–iqtisodiy rivojlanishdagi yaqinlik, milliy urf–odatlar va an'analar o'xshashligi, yagona geografik joylashuv va iqlim sharoiti, rivojlanish infratuzilma obyektlari (energetika, transport, suv xo'jaligi)ning mavjudligi,



qishloq xo'jaligida umumiy ixtisoslashuv, sanoat korxonalarining mahalliy xom-ashyo va mineral boyliklar asosida shakllangan bir xil xarakteri, yer, suv va yaylovlardan birgalikda foydalanish imkoniyati, rekreatsiya va turizm salohiyatidan ommaviy dam olish hamda sanatoriyalar tashkil etish imkoniyati, shuningdek, ekologik jihatdan nozik va tabiatni himoya qilish tizimining umumiylik kabi omillarga tayanadi.

Vodiya O'rta Osiyodagi eng yirik va iqtisodiy jihatdan o'zlashtirilgan tog'lar orasidagi botiqlikda, xalqasimon tog' tizimlari ichida joylashgan bo'lib, yer maydonining asosiy qismini tekislik, adir va adirlik hududlar (93,5 %) tashkil qiladi; Namangan viloyati tog' va tog'oldi yerlarining 12,9 % ulushi bilan alohida ajralib turadi. Vodiya viloyatlarini ajratib turadigan tabiiy to'siq mavjud emas.

Iqlimi kontinental subtropik bo'lib, vegetatsiya davri 230–240 kunga cho'ziladi, ijobiy harorat yig'indisi 4 600–5 000 °C ni tashkil qiladi va bu yiliga 2–3 marta hosil olish imkoniyatini beradi. Yirik tog' tizimlari sovuq havo oqimini to'sadi, Qoraqum va Qizilqum cho'llariga yaqinligi esa issiqlik darajasi va qurg'oqchilikka ta'sir qiladi.

Vodiya 1 million yil avval odamlar yashagan uzoq tarixga ega bo'lib, yaxlit tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qishloq xo'jaligida xususiy mulkchilikning shakllanganligi, suv xo'jaligining umumiylik, aholining yagona makonda yashashi, mahalliy tabiiy-iqtisodiy salohiyatdan keng foydalanilishi, savdo-sotiqning rivojlanishi va tadbirkorlikning faolligi bilan tavsiflanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Farg'ona vodiysi viloyatlari o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik, tarmoqlararo kooperatsiya va hududiy rivojlanish masalalari mahalliy va xalqaro iqtisodiy tadqiqotlarda keng o'rganilgan. O'zbekistonda hududlararo hamkorlikning institutsional asoslari va davlat siyosati yo'nalishlari 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da alohida belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni, 2022). Ushbu strategiyada hududlar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish, transport va logistika tizimini takomillashtirish, shuningdek, iqtisodiy integratsiya jarayonlarini jadallashtirish vazifalari ko'rsatilgan.

Komilov A.A. (2021) o'z asarida mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollarini tahlil qilib, tarmoqlararo muvozanat va hududiy resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishga erishish zarurligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Raximov A.R. (2020) hududlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish mexanizmlarini o'rganib, kooperatsiyaning institutsional to'siqlarini bartaraf etish yo'llarini taklif qiladi.

Xalqaro tadqiqotlar ham Farg'ona vodiysi kabi chegaradosh va iqtisodiy jihatdan bog'liq hududlarda integratsiya jarayonlarining ahamiyatini qayd etadi. OECD (2022) va Asian Development Bank (2023) hisobotlarida chegaraviy hududlarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda transport infratuzilmasi, qo'shma ishlab chiqarish loyihalari va raqamli iqtisodiy platformalarning strategik ahamiyati alohida ta'kidlangan. World Bank (2021) esa O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiy o'sish uchun inson kapitali, infratuzilma va institutsional islohotlarning uyg'un rivojlanishini zarur deb hisoblaydi.

Ilmiy-nazariy jihatdan, Leontyev V. (1986), Isard U. (1960) va Richardson X.V. (1972) kabi olimlar ishlab chiqqan "Input–Output" va hududiy tahlil usullari hududlar iqtisodiy aloqalarini o'rganishda asosiy metodologik baza hisoblanadi. Abdrashitova A.R. (2014) ham tarmoqlararo balans modelidan foydalanib, iqtisodiy tuzilma o'zgarishlarini bashorat qilish imkoniyatlarini namoyon etgan.

Shu tariqa, mavjud adabiyotlar tahlilidan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyatining Farg'ona va Andijon viloyatlari bilan iqtisodiy hamkorligi masalasi tarixiy, geografik va tarmoqlararo omillar asosida shakllanib kelgan. Biroq, ko'pchilik tadqiqotlarda ushbu hamkorlikning zamonaviy sanoat integratsiyasi, raqamli iqtisodiyot va klaster asosida rivojlanish mexanizmlari yetarlicha yoritilmagan. Bu esa mavzuning dolzarbligini yanada oshiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tizimli tahlil, muqobil taqqoslash va "case–study" (alohida hududiy holatlar misolida tahlil) kabi ilmiy yondashuvlar qo'llanildi. Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning tuzilishi va dinamikasi tarmoqlararo hamda hududlararo ma'lumotlar asosida tahlil etildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, mahalliy hokimiyat organlari ma'lumotlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va ilmiy manbalar keng qamrovli tahlildan o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Farg'ona viloyatining iqtisodiy rivojlanish evolyutsiyasi turlicha ko'rinishda bo'lib, ma'lum miqdoriy va sifat o'zgarishlarini boshidan kechirgan. Hozirgi salohiyatning bir qator o'ziga xos xususiyatlari mavjud (1-jadval).

1-jadval. Farg'ona vodiysining mamlakat iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni (2023-yil) foiz.¹

№	Ko'rsatkichlar	O'zbekiston Respublikasi	Farg'ona vodiysi	Andijon viloyati	Namangan viloyati	Farg'ona viloyati
1.	Yer maydoni	100	4,1	1,0	1,6	1,5
2.	Aholi soni	100	28,5	9,2	8,2	11,1
3.	Yalpi hududiy mahsulot	100	17,3	6,4	4,5	6,4
4.	Sanoat	100	18,7	10,0	2,8	5,9
5.	Istemol mahsulotlari	100	34,7	23,9	5,1	5,7
6.	Qishloq xo'jaligi	100	27,1	10,9	7,5	8,7
7.	Xizmatlar	100	14,9	5,1	3,9	5,9
8.	Chakana savdo	100	21,8	7,6	6,0	8,2
9.	Investitsiyalar	100	15,5	4,3	6,4	4,8
10.	Eksport	100	10,1	3,9	2,5	3,7

Mamlakat maydonining 4,1 foizini egallagan holda, vodiya istiqomat qilayotgan aholining ulushi 28,5 foizni tashkil etadi. Jumladan, Farg'ona viloyatida ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 1,5 foiz va 11,1 foizga teng. Demak, vodiya o'zining demografik boyligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, vodiya iste'mol mahsulotlari (34,7 foiz) va qishloq xo'jaligi mahsulotlari (27,1 foiz) ishlab chiqarish, shuningdek, chakana savdo hajmi (21,8 foiz) bo'yicha ham mamlakatda yuqori mavqega ega.

Shu bilan birga, investitsion faollik va eksport salohiyatini oshirish bo'yicha vodiya viloyatlarida katta imkoniyatlar mavjud. Xususan, Namangan viloyatining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 2,8 foiz, xizmatlar hajmi 3,9 foiz, eksport ko'rsatkichi esa 2,5 foizni tashkil etib, bu ko'rsatkichlarni kelgusida sezilarli darajada oshirish uchun yetarli tabiiy va iqtisodiy salohiyatga ega.

Umuman olganda, vodiya iqtisodiy o'sish sur'atlari mavjud imkoniyat va resurslardan kelib chiqadigan kutilgan darajaga yetmaganini ko'rsatadi. Bu holatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida viloyatlararo iqtisodiy hamkorlikni tashkil etish va rivojlantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Vodiya iqtisodiyotida erishilgan natijalar ma'lum darajada uning tarmoqlar tarkibining shakllanishiga bog'liq (2-jadval).

2-jadval. Farg'ona vodiysi iqtisodiyotining tarmoqlar bo'yicha tarkibining shakllanishi (2023-yil), foiz.²

Mintaqalar	Sanoat	Qurilish	Qishloq xo'jaligi	Xizmatlar
O'zbekiston Respublikasi	30,0	6,4	28,1	35,5
Farg'ona vodiysi viloyatlar:	20,6	6,1	41,8	31,5
Andijon	22,6	5,5	45,1	26,8
Namangan	15,0	6,9	45,0	33,1
Farg'ona	24,3	5,8	35,4	34,5

Bu yerda asosiy nomutanosiblik sanoat va xizmatlar sohasining o'rtacha mamlakat darajasidan pastligida namoyon bo'ladi. 2023-yilgi rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, vodiya iqtisodiyotida sanoatning ulushi 20,6 foizni (mamlakatda – 30,0 foiz), xizmatlar ulushi esa 31,5 foizni (mamlakatda – 35,5 foiz) tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichlar Namangan viloyatida mos ravishda 15,0 foiz va 33,1 foizni tashkil qiladi. Vodiya va uning barcha viloyatlarida iqtisodiyotning asosiy ulushini qishloq xo'jaligi tashkil etadi (bu ko'rsatkichlar mos ravishda 41,8 foiz, 45,1 foiz, 45,0 foiz hamda 35,4 foizni tashkil etadi).

Mustaqillik yillarida vodiya viloyatlari o'zlarining ilgari shakllangan yuqori sanoat salohiyatini tiklash o'rniga, uning sezilarli pasayishi kuzatildi. Ob'ektiv omillar ta'siriga qaramay, vodiya iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasi zamonaviy talablar darajasiga yetmagan, mavjud imkoniyatlar esa to'liq safarbar etilmagan.

Viloyatlar orasida Farg'ona viloyati chorvachilik rivojlanishida yetakchi o'rinni egallaydi. Jumladan, go'sht va sut yetishtirish, parranda va sigirlar soni bo'yicha viloyatning ustunligi kuzatiladi. Vodiya viloyatlarida chorvachilikni barqaror rivojlantirish aholi ehtiyojlarini qondirish, mavjud yer va suv resurslaridan samarali

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida hisoblangan.



foydalanish, ekstensiv o'sishdan intensiv o'sishga o'tish, an'anaviy usullar o'rniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ekologik muvozanatni saqlash, mehnat unumdorligini sezilarli darajada oshirish, xom ashyoni qayta ishlashda sanoat usullariga o'tish, shaxsiy tomorqa xo'jaliklari bilan bir qatorda yirik chorvachilik klasterlarini shakllantirishni talab etadi.

Mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik hozirgi global iqtisodiy murakkabliklar sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham viloyatlararo iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, tarmoqlararo kooperatsiyani kuchaytirish va hududlar imkoniyatlaridan oqilona foydalanish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, Farg'ona vodiysida joylashgan va strategik geografik o'ringa ega Namangan viloyatining Andijon va Farg'ona viloyatlari bilan iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini chuqur tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

Hozirgi holat tahlili shuni ko'rsatadiki, Namangan viloyati O'zbekistonning sanoatlashgan va aholi zich joylashgan hududlaridan biri bo'lib, Farg'ona vodiysining markaziy qismida joylashgan hamda iqtisodiyotida to'qimachilik, oziq-ovqat, qurilish materiallari sanoati va qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida viloyatda infratuzilmaviy loyihalar amalga oshirilib, klaster tizimlari va eksport kooperatsiyasi faol joriy etilmoqda. 2023-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "Hududlarning ichki va o'zaro iqtisodiy hamkorligini kuchaytirish – hududiy rivojlanishda asosiy omil hisoblanadi" (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 2023-yil) va amalda Namangan viloyati Andijon hamda Farg'ona viloyatlari bilan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilishda tovar ayirboshlash hajmini kengaytirgan, sanoat kooperatsiyasi orqali tayyor mahsulot yetishtirishda o'zaro yetkazib berish zanjirlarini shakllantirgan hamda xizmat ko'rsatish sohasida – savdo, ta'lim, sog'liqni saqlash va turizm yo'nalishlarida ham samarali hamkorlikni yo'lga qo'ygan.

Iqtisodiy rivojlanishda drayver bo'luvchi asosiy omillar sifatida geostrategik joylashuvi, Farg'ona vodiysi hududlarining yaqinligi va tarixiy-iqtisodiy bog'liqligi tufayli transport va logistika xarajatlarining kamayishi; tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish va klaster modeli asosida to'qimachilik, qurilish va agrosanoat kabi tarmoqlarda ishlab chiqarish zanjirlarining birlashishi; mehnat resurslari va malakali kadrlarning viloyatlar o'rtasida erkin harakat qilishi orqali ishchi kuchi va bilim almashinuvi; raqamli iqtisodiyot hamda elektron platformalarning joriy qilinishi tufayli savdo-sotiq jarayonlarining tezlashishi; davlat siyosati va investitsiya muhitining yaxshilanishi hamda hududlararo infratuzilma loyihalariga e'tiborning ortishi qayd etiladi. Ekspert va mutaxassislar fikriga ko'ra, iqtisodiy hamkorlik muvaffaqiyati uchun transport, moliyaviy xizmatlar va raqobatbardosh mahsulot yetishtirishdagi integratsiya muhim ahamiyatga ega (Abdrashitova A.R., 2018).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tahlil va empirik ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, Namangan viloyatining Farg'ona vodiysidagi qo'shni hududlar — Andijon va Farg'ona viloyatlari bilan iqtisodiy hamkorligi tabiiy-geografik, demografik va tarmoqlararo imkoniyatlarga asoslangan holda shakllanmoqda. Mintaqalararo iqtisodiy kooperatsiyaning mavjud salohiyati hududlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti, infratuzilmaviy yaqinlik va tarixi mushtarak bozor muhiti hisobga olgan holda yanada samarali bo'lishi mumkin.

Hozirgi bosqichda iqtisodiy hamkorlikning aniq ifodalangan shakllari — qishloq xo'jaligi mahsulotlari ayirboshlash, xizmat ko'rsatish sohasidagi o'zaro ta'sir va kadrlar almashinuv orqali namoyon bo'lmoqda. Biroq rasmiy hujjatlarda hamkorlik mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmagani, normativ-huquqiy bazaning uyg'unlashmaganligi va investitsion loyihalardagi kooperatsiya jarayonlarining sustligi kabi masalalar mavjud bo'lib, ularning kompleks hal etilishi dolzarbdir.

Shu sababli, mintaqalararo iqtisodiy hamkorlikni yanada chuqurlashtirishda davlat siyosatining strategik ko'lamida qo'shma ishlab chiqarish klasterlarini rivojlantirish, raqamli iqtisodiy platformalarni joriy etish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va viloyatlararo investitsion muhitni tartibga solish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilanishi zarur. Bunda har bir hududning tarmoqlararo ixtisoslashuvi va resurs salohiyatidan moslashuvchan foydalanish hududlararo barqaror o'sishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, Namangan viloyatining qo'shni hududlar bilan iqtisodiy aloqalari nafaqat mintaqaviy taraqqiyotning drayveri, balki milliy iqtisodiyotda tarmoqlararo uzviylikni ta'minlashda muhim strategik mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu hamkorlik shakllari va ularni institutsional qo'llab-quvvatlash orqali Farg'ona vodiysida yuqori darajadagi iqtisodiy integratsiyaga erishish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni. – T.: "Xalq so'zi", 2022.



2. Davlat statistika qo'mitasi. "O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy holati" bo'yicha yillik hisobotlar. – Toshkent: 2020–2024 yillar.
3. Komilov A.A. Regional iqtisodiyot va uning rivojlanish istiqbollari. – T.: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021. – 246 b.
4. Abdrashitova A.R. Prognozirovaniye strukturnykh sdvigov ekonomiki regiona s ispol'zovaniem metoda «Zatraty-Vypusk»: diss. kand. ekon. nauk. – Ufa, 2014. – 189 s.
5. Raximov A.R. O'zbekistonda hududlararo iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish mexanizmlari. – T.: Fan, 2020. – 184 b.
6. Orlova A.V. Menedjment: osnovy upravleniya konfliktami i vedeniya delovyx peregovorov. – M.: KnoRus, 2018. – 320 s.
7. Leontief, W. (1986). Input-Output Economics (2nd ed.). – Oxford University Press.
8. Isard, W. (1960). Methods of Regional Analysis. – Cambridge: MIT Press.
9. Richardson, H.W. (1972). Input-Output and Regional Economics. – London: Weidenfeld & Nicolson.
10. OECD (2022). Enhancing Regional Economic Cooperation in Central Asia. – OECD Publishing. <https://www.oecd.org/eurasia/>
11. World Bank (2021). Uzbekistan Systematic Country Diagnostic: Pathways for Inclusive and Sustainable Growth. – Washington, DC.
12. Asian Development Bank (2023). Unlocking the Potential of Central Asia's Border Regions. – Manila: ADB Publications.
13. UNDP Uzbekistan (2020). Regional Development Strategy for Fergana Valley. – Toshkent: UNDP.
14. Kim M.A., Safarov B.J. Tarmoqlararo balans modeli va uning hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyati // Ilmiy-amaliy iqtisodiy tadqiqotlar jurnali. – 2023. – №2(41). – B. 45–53.
15. Miraxmedov Sh.M. Hududiy rivojlanish va iqtisodiy kooperatsiya jarayonlari. – T.: Iqtisodiyot, 2019. – 278 b.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>